

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida atrof-muhit muhofazasi

// 28.04.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalarida-atrof-muhit-muhofazas>



Bugungi jarayonlar kimyo sanoatini zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash bilan bir qatorda ishlab chiqarishda ekologik tozalikni ta'minlash, chiqindisiz texnologiyalarni va atrof muhitni saqlash dasturlarini joriy etishni ham taqozo etadi.

Bu borada "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida qator vazifalar belgilangan.

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari tomonidan ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat korxonalarining atrof muhitga ta'sirini kamaytirish maqsadlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari ko'rib borilmoqda.

Xususan, 2025-yil yanvar-mart oylarida jami 6,8 mlrd so'mlik 19 ta tadbirlar amalga oshirilishi natijasida 5 025,3 tonna atmosferaga tashlanmalar kamayishiga, shu jumladan 721 tonna toksik tashlamalar kamayishiga va 77 ming m3 suv tashlanmalarining kamayishiga erishildi. Shuningdek amaliy tadbirlar tufayli 240 ming m3 artezian suv va 1 060 ming m3 ichimlik suv iqtisod qilindi. 11 ming tonna chiqindi utilizatsiya qilindi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash orqali xom ashyoga aylantirish kabi innovatsion texnologiyalarning joriy qilinayotgani ham chiqindilar hajmini

yanada kamaytirish imkonini bermoqda.

Ta'kidlash kerak, kimyo sanoati korxonalari bugungi globallashuv va iqlim o'zgarishlari sharoitida atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati